

---

## Xalqaro tavsiyalarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish qanday muhim tamoyillarga asoslanadi?

1. **Markazlashtirish.** Aholini ro'yxatga olishni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy shartlaridan biridir.
2. **Aholini ro'yxatga olishning muntazamligi.** BMT tavsiyalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi belgilangan.
3. **Aholini ro'yxatga olish maxsus tayyorlangan mutaxassislar - hisobchilar tomonidan o'tkazilishi.** Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko'p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar, talabalar ham kiritilishi mumkin.
4. **Aholini ro'yxatga olishni aniq bir muddatda o'tkazish.** Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10-12 kun talab etiladi. Aholini ro'yxatga olish bir necha kun davomida o'tkazilsa ham, ma'lumotlar aniq bir vaqtda - ko'pincha aholini ro'yxatga olishning birinchi kunining 0 soatdagi holati bo'yicha qayd etiladi. **Bu aholini ro'yxatga olishning nozik vaqti,** deb ham ataladi.

*Masalan, chaqaloq aholini ro'yxatga olish davrida, ammo ana shu aniq muddatdan keyin tug'ilgan bo'lsa, u aholi ro'yxatiga kiritilmaydi. Lekin, kimdir bu aniq nozik muddatda hayot bo'lib, shundan keyin, ya'ni aholini ro'yxatga olish davrida vafot etsa, u aholi ro'yxatiga kiritiladi.*

5. **Aholini ro'yxatga olishning belgilab qo'yilgan aniq dasturining mavjudligi va tadbirni unga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazish.** Aholini ro'yxatga olish dasturi - ro'yxatga olishda muayyan talablarni hisobga olgan holda, aholiga murojaat qilinadigan savollar ro'yxatini, ma'lumotlarni qayd etish, to'plash, qayta ishlash, yakuniy ma'lumotlarni e'lon qilish tartiblarini o'z ichiga oladi.
6. **Aholining to'liq qamrab olinishi.** Aholini ro'yxatga olishda kimdir unutib qoldirilishi yoki ikki marta ro'yxatga olinishi hollari uchrasa ham, mavjud aholining ro'yxatdan joy olinishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi.
7. **Ma'lumotlarning maxfiyligi va shaxsiylashtirilishi.** Aholini ro'yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to'g'risidagi yakka ma'lumotlar to'planadi. Shu bilan birga, respondentlardan olingan ma'lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro'yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi.
8. **Ixtiyoriylik.** Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar so'ralayotgan (respondent)ning javoblari (kichik yoshdagilar uchun - ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslarning) asosida qayd qilinadi va buni hujjat bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

Ko'pgina mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish qonun bilan tartibga solinishi mustahkamlab qo'yilgan.

Риштон туман статистика бўлими

2020-08-15 12:25:10